



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I**

2024 - yil «24» sentabr

355 -son

Toshkent shahri

**Korrupsiyaga qarshi ta'lismi va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish
global resursi (GRACE) dasturi doirasida o'qitish amaliyotini joriy etishni
tashkil etish to'g'risida**

“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak xalqaro mukofot” bilan taqdirlash marosimi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosi bo'yicha 2024-2026 yillarga mo'ljallangan “Yo'l xarita”si hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-yanvardagi 12-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Yo'l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Korrupsiyaga qarshi ta'lismi va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturidagi materiallarni ta'lismi muassasalarining mavjud o'quv dasturlari bilan birgalikda o'qitish uchun mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruhi:

2024-yil 15-oktabrga qadar Korrupsiyaga qarshi ta'lismi va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (“GRACE Initiative”) dasturidagi materiallarni bosqichma-bosqich oliy va professional ta'lismi muassasalarining mavjud o'quv dasturlari bilan birgalikda o'qitish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqsin;

2024-yil 20-oktabrga qadar faol o'quvchi-yoshlar hamda talabalar o'rtasida mavzuga oid darsdan tashqari mashg'ulotlar, seminar-treninglar tashkil etishda foydalaniладigan materiallarni tayyorlasin;

2024-yil 25-oktabrga qadar ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar hamda materiallarni vazirlikning Ta'lismi muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lismi sifatini ta'minlash (Xoliqov) hamda Professional ta'lismi tizimini rivojlantirish departamentlariga (Alijonov) taqdim etsin.

3. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent yuridik texnikumi rahbariyatiga ishchi guruh tarkibidagi mutaxassislariga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratish vazifasi yuklansin.

4. **Ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta’lim sifatini ta’minlash departamenti** (Xoliqov), **Professional ta’lim tizimini rivojlantirish departamenti** (Alijonov), **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi** (Parmanov) **2024-yil 10-noyabrga qadar** ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan metodik tavsiyalar hamda materiallarni tahlil qilib, oliy va professional ta’lim muassasalarining ta’lim jarayonida qo‘llash uchun barcha ta’lim muassasalariga yetkazsin.

5. Oliy va professional ta’lim muassasalari rahbarlariga **2024-2026 yillar mobaynida:**

Korrupsiyaga qarshi ta’lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi doirasida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar bo‘yicha bosqichma-bosqich oliy va professional ta’lim muassasalarining mavjud o‘quv dasturlari bilan birgalikda o‘qitish;

faol o‘quvchi-yoshlar hamda talabalar o‘rtasida mavzuga oid darsdan tashqari mashhg‘ulotlar, seminar-treninglar tashkil etish vazifalari yuklansin.

6. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazirning birinchi o‘rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov

NUSXA
ASLIGA TO‘G‘RI

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining
2024-yil 18.9 -sentabrdagi 18.9 -son buyrugiga
ilova



**Korrupsiyaga qarshi ta'lif va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish
global resursi (GRACE) dasturidagi materiallarni ta'lif muassasalarining
mavjud o'quv dasturlari bilan birgalikda o'qitish uchun mo'ljallangan
dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh
TARKIBI**

- | | |
|-------------------|--|
| 1. V. Umaraliyev | – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Huquqiy fanlar kafedrasi Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent, <i>ishchi guruh rahbari</i> |
| 2. M. Axundjanova | – Toshkent yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi |
| 3. Z. Ibragimova | – Toshkent yuridik texnikumi maxsus fan o'qituvchisi |